

“IELTS IMTIHONI VA UNING TA’LIM TIZIMIDAGI O’RNI”

*Durdona Zaynobiddinova Nurillo qizi
O’zbekiston Davlat Jahon Tillari universiteti
Ingliz tili ikkinchi fakulteti 2-bosqich talabasi
zaynobiddinovadurdona05@gmail.com*

ANNOTATSIYA: Mazkur maqola IELTS imtihoninig ta’limda o’rni va ahamiyati, uning tuzilishi va baholash mezonlari haqida va albatta xalqaro va milliy ta’lim muassasalarida qanday ahamiyat kasb etgani haqida fikr yuritiladi. IELTS imtihoni talabalar va mutaxasislarga qanday imkoniyatlar yaratayotgani va O’zbekiston ta’lim tizmidagi roli hamda IELTSning ta’lim sifatiga ta’siri va istiqbollari haqida ko’rib chiqiladi.

KALIT SO’ZLAR: IELTS, xalqaro imtihon, ta’lim tizmi, xalqaro ta’lim standartlari, listening, reading, writing, speaking.

АННОТАЦИЯ: В данной статье рассматривается роль и значение экзамена IELTS в образовании, его структура и критерии оценки, и, конечно же, то, как он приобрел значение в международных и национальных учебных заведениях. Экзамен IELTS будет обсуждаться о том, какие возможности он создает для студентов и специалистов и его роли в системе образования Узбекистана, а также о влиянии и перспективах IELTS на качество образования.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: IELTS, международный экзамен, система образования, международные стандарты образования, аудирование, чтение, письмо, говорение.

ABSTRACT: This article discusses the role and importance of the IELTS exam in education, its structure and assessment criteria, and, of course, how it has gained importance in international and national educational institutions. The IELTS exam will be discussed about what opportunities it creates for students and professionals and its role in the education system of Uzbekistan, as well as the impact and prospects of IELTS on the quality of education.

KEY WORDS: IELTS, international exam, education system, international education standards, listening, reading, writing, speaking.

KIRISH: Bugungi kunda imgliz tiliga bo’lgan talab ortib bormoqda shuningdek, ingliz tili hozirda xalqaro muloqot, ilm-fan sohalarida ham yetakchi til hisoblanadi. Bu esa ingliz tilini bilish darajasini baholash tizimlariga bo’lgan ehtiyojlarni oshiradi. IELTS (International English Language Testing System) dunyodagi eng ko’p tanilgan til bilish imtihonlaridan biri hisoblanib 10,000dan ortiq kompaniya tashkilot va universitetlar tomonidan tan olingan. IELTS natijasini olish

bizga juda ko'p imkoniyatlar eshagini ochadi hoh u xalqaro universitet bo'lsin, hoh u mahalliy, undan tashqari ishga joylashish va imigratsiya jarayonlarida ham IELTS natijalar muhim rol o'ynaydi. Ushbu maqolada IELTS imtihoning tuzilishi, baholash mezonlari va O'zbekistonda ta'lim tizimidagi roli haqida o'r ganiladi. Maqolaning dolzarbligiga to'xtaladigan bo'lsak, IELTS imtihoni nafaqat xalqaro tizimda, balki O'zbekistonda ham keng qo'llanishi va unga bo'lgan talablarning ortib borayotgani bilan bog'liq.

IELTS imtihoning maqsadiga to'xtaladigan bo'lsak, bu imtihon ingliz tilini bilish darajasini aniqlashga qaratilgan bo'lib, u nafaqat mahalliy balki xalqaro miqyosda tan olingan imtihon shakli hisoblanadi. Ushbu imtihonga topshiradiganlarning katta qismini immigratsiya qilmoqchi bo'lган shaxslar, ingliz tilida ta'lim olish yoki ishlashni reja qilgan shaxslar tashkil qiladi. Chunki til bilish sertifikati ularga o'zлari xohlayotgan milliy yoki xalqaro darajada o'qish va faoliyat olib borishda yordamlashadi va ularga juda katta imkoniyalrni beradi. Shuni atib o'tish joizki har bir tashkilot yoki o'quv muassasasi o'z ichki tartibidan kelib chiqqan holda ma'lum bir til bilish darajasini talab etadi. Xozirgi kunda asosan ko'plab taashkilot va o'quv muassasalarida C1 yoki aksariyat hollarda B2 darajalari talab qilinmoqda.

IELTS imtihonini tarkibiy qismlari haqida so'z yuritadigan bo'lsak, IELTS o'zi 4ta qismdan iborat:

- Listening
- Reading
- Writing
- Speaking

Har bir qismga to'xtaladigan bo'lsak, Listening bu – ingliz tilida eshitib, tushunishni baholaydigan qism hisoblanadi. Bu qism ham jami 4ta qismlarga bo'linadi. Part1, Part2, Part3, Part4 kabi. Bu qismlar osondan qiyinda tomon yo'naltirilgan bo'ladi. Listeningda jami 40ta savol va 40daqiqa vaqt beriladi. Reading esa o'qib tushunish hisoblanib, unda ham xuddi listening kabi 40ta savol lekin 60 daqiqa beriladi. Writing esa ilmiy uslubda yozish hisbolanib, ko'pchilik kandidatlarning eng og'riqli nuqtalaridan biri hisoblanadi va ko'pchilik shu qismdan past bal oladi. Writing 2qismdan tashkil topgan Task1 va Task2 dan va yozish uchun jami 60 daqiqa beriladi. Speaking qismida esa test topshiruvchilar imtihon oluvchi tomonidan beriladigan 3qismdan iborat bo'lган savollarga og'zaki javob berishlari kerak bo'ladi. Bu jarayon esa 11 yoki 14 daqiqa davom etadi.

IELTS bu xalqaro va mahalliy miqyosda ta'lim olish imkoniyatlarini qanday qilib kengaytirishi haqida fikr yuritadigan bo'lsak, avvalo IELTS dunyoning eng nufuzli universitetlari tomonidan talab qilinadigan til bilish testi ekanini yoddan chiqarmaslik kerk. Shuningdek, ko'plab grant dasturlariga hujjat topshirishda ham muhim rol o'ynaydi. Masalan, Chevening, Erasmus Mundus, Fulbright kabi xalqaro

stipendiyalar IELTS sertifikatlarini talab qiladi. Bu esa o'quvchi va talabalarga ingliz tilini chuqur o'rganish va til bilish bo'yicha imtihon topshirishga turtki beradi. Undan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydag'i "Chet tillarni o'rganishni rivojlantirish to'g'risida"gi qaroriga binoan, IELTS sertifikatiga ega bo'lgan talabalarga turli imtiyozlar berilishi belgilandi. Qo'shimcha qiladigan bo'lsam, agarda OTMlarda hujjat topshirayotgan talabalarda IELTS sertifikati B2 darajada va undan yuqori bo'lsa ularga avtomatik tarzda bal qo'shib beriladi va shuni hisobiga ular ingliz tildan test bajarishmaydi. O'zbekiston davlat universitetlari, jumladan, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Jahon tillari universiteti va boshqa OTMlar IELTS natijalari asosida talabalarni magistratura va boshqa xalqaro dasturlarga qabul qiladi. Bu esa talaba yoshlarga motivatsiya bergen holatda ingliz tilini o'rganib, sertifikat olishlar sonini keskin o'sishiga sabab bo'ladi desam mubolag'a bo'lmaydi.

XULOSA: Mazkur maqolada IELTS imtihonining ta'limdagi o'rni, xalqaro va milliy universitetlarda qanday qabul qilinishi haqida fikr yuritildi. IELTS imtihoni xalqaro ta'lim standartlariga mos bo'lib, uning natijalari dunyoning barcha nuqtalaridagi o'z nufuziga ega bo'lgan universitetlar tomonidan tan olinadi. O'zbekistonda esa IELTS sertifikatining ta'lim tizimida tutgan o'rni tobora ortib bormoqda. Kelajakda esa bu imtihonni milliy ta'lim tizimiga yanada chuqurroq integratsiya qilish ham ehtimoldan holi emas.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Green, A. (2019). Exploring Language Assessment and Testing: Language in Action. Routledge. IELTS rasmiy sayti: <https://www.ielts.org> (<https://www.ielts.org/>) Taylor, L. (2018). Assessing Speaking. Cambridge University Press. IELTS rasmiy saytida baholash mezonlari: <https://www.ielts.org/about-the-test>
2. Coleman, J. A. (2020). Study Abroad and the Second Language. Cambridge University Press.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori: <https://lex.uz> (<https://lex.uz/>)
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi: <https://edu.uz> (<https://edu.uz/>)
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrdagi "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-269-son
6. British Council. (2021). IELTS Band Score Calculator. <https://takeielts.britishcouncil.org/>
7. https://www.chevening.org/faqs/what-happened-to-chevenings-english-language-requirement/?utm_source=chatgpt.com
8. Erasmus Mundus rasmiy sayti: <https://www.eacea.ec.europa.eu/scholarships>